

О‘ЗBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIK MA’NONING SEMALARI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Sattarqulova Shalola

GulDU mustaqil izlanuvchisi

Leksik ma'no mavhum hodisa bo'lib, uning mohiyati, mundarijasini aniq tasvirlash uzoq yillar davomida muammo bo'lib kelar edi. XX asr tilshunosligining eng muhim yutuqlaridan biri leksik ma'noni uzvlarga parchalab o'rganish usulining kashf etilishi bo'ldi. Bu usul avval *komponent analiz metodi* deb, keyinchalik *semik analiz metodi* deb nomlandi (*komponent* – lot. *componentis* - 'tarkib toptiruvchi', 'qatnashuvchi', *sema* - yunoncha *sema* - 'belgi'). Leksik ma'noning semalari voqelikka nisbat berib ajratiladi. Bunda semalar keng tushunchadan tor tushunchaga tomon ketma-ket belgilanadi. Masalan, *qo'l*- leksemasi bosh leksik ma'nosining semalarini ajratishda avval 'jonli predmet' tushunchasi (jonsiz predmetlarga zid *qo'yib*), keyin 'kishi' tushunchasi (boshqa jonlilarga zid *qo'yib*) hisobga olinadi; shundan keyin 'kishi tanasi', 'kishi tanasining a'zosi' semalari belgilanib, so'ngra ta'riflanayotgan a'zo tananing qaysi qismida qanday joylashgani (yelkadan barmoq uchigacha), qanday vazifani bajarishi (ushlash) aniqlanadi; yuqorida sanalgan belgilardan har biri ta'riflanayotgan leksik ma'noning semalari hisoblanadi, leksik ma'no ana shu semalar asosida ta'riflanadi. Yuqorida sanalgan belgilar (semalar) asosida *qo'l*- leksemasining bosh leksik ma'nosini 'kishi tanasining yelkadan boshlanib barmoq uchigacha davom etadigan, ushlash vazifasini bajaradigan a'zosi' deb ta'rifladik. Bu ta'rifni *qo'l*- leksemasining shu leksik ma'nosiga "O'zbek tilining izohli lug'ati'da berilgan ta'rif bilan qiyoslang: 'odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi'.

Bu izohli lug'at tuzilgan yillarda leksik ma'no semik tahlil usuli bilan o'rganilmas edi; hozir qayta tuzilayotgan izohli lug'atda leksik ma'nolar semik tahlil asosida ta'riflanishi lozim; shunda oldingi nashrida yo'l qo'yilgan juda ko'p nuqsonlar bartaraf qilinadi.

Leksik ma'no tarkibida ajratiladigan semalar *ideografik sema* deb nomlanadi (yunoncha *idea* - 'tushuncha', *graphike* - 'yozuv'). Leksik ma'noga ta'rif ideografik semalar asosida tuziladi. Masalan, semik tahlil usuli bilan *aka*- leksemasining leksik ma'nosi tarkibiga kiruvchi quyidagi ideografik semalar aniqlanadi: a) 'kishi', b) 'erkak', v) 'tug'ishgan' ('bir ota-onaning farzandi'), g) 'yoshi katta'. Ushbu ideografik semalar asosida leksik ma'no ta'rifi quyidagicha tuziladi: 'bir ota-onaning yoshi boshqalaridan katta erkak farzandi'. Ko'rinadiki, leksik ma'no ta'rifi ideografik semalarni to'liq va aynan kiritish shart emas, ulardan zarur va maqbul tarzda foydalaniladi.

Leksik ma'noning ideografik semalarini aniqlashda bevosita voqelikning o'ziga murojaat qilinadi, chunki leksema bilan (leksik ma'no bilan) ma'lum bir voqelik to'g'ridan to'g'ri nomlanadi, ma'lum bir ma'no ham shunday birkiriladi. Ideografik semalarni leksemalarni o'zaro qiyoslab belgilash boshqa maqsadlar bilan (masalan, leksemalarning leksik-semantik guruhlarini o'rganishda) amalga oshiriladi (Bu to'g'rida keyinroq gapiriladi).

Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari, nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Voqelikka munosabat bildirish belgisiga *baho semasi* deyiladi. Masalan, *qush*- va *qushcha*- leksemalari leksik ma'no anglatishiga ko'ra bir xil, baho ifodalashiga ko'ra farqli. *Qush*- leksemasi baho semasi jihatidan betaraf: anglatilayotgan narsaga ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanmaydi; *qushcha*-leksemasida bunday munosabat ifodalanadi. Demak, *qushcha*- leksemasining semantik mundariyasi *qush*- leksemasinikidan boy.

Leksemaning mazmun jihatida asosiy hodisa – leksik ma'no; baho semasi leksik ma'noni qurshab turadi. Baho semasi asosan uch xil ifodalanadi: 1) morfema yordamida, 2) leksemaning o'zi bilan, 3) kontekst yordamida.

Baho semasining morfema yordamida ifodalanishi *morfologik ifodalanish* deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida bunday vazifani *-cha* (*qushcha*- kabi), *-gina* (*qizginam* kabi), *-jon* (*otajonim* kabi), *-chak*, *-choq* morfemalari (*kelinchak*-, *qo'zichoq*- kabi) bajaradi. Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi.

Baho semasi leksemaning o'zi bilan ifodalansa, *leksik ifodalanish* deyiladi. Bunda baho semasi leksemalarning o'zaro semantik munosabatida ochiq ko'rinadi. Masalan, *yuz-, bet-, aft-, bashara-* leksemalari ayni bir leksik ma'noni anglatadi, baho semasining ifodalanishiga ko'ra esa farqli. Baho semasi jihatidan eng betaraf leksema – *yuz-*. Ikkinchi o'rinda *bet-* leksemasi turadi, lekin bu leksemada voqelikka salbiy munosabat aniq seziladi. Masalan, *Yuzingni yuv, Betingni yuv* jumllarida fikr bir, lekin munosabat boshqa-boshqa: ikkinchi jumla odatda kattaning kichikka yoki umuman mensimay muomala qilishda ishlatiladi. *Aft-, bashara-* leksemalarida salbiy baho semasi yana ham kuchli ifodalanadi: *Aftingni yuv, Basharangni yuv* kabi.

Umuman, baho semasi kuchaya borgan sari bunday leksemaning boshqa leksemalar bilan bog'lanish imkoniyati, ishlatilish doirasi toraya boradi. Masalan, *aft-, bashara-* leksemalari asosan ayollar nutqida ishlatiladi, shunda ham ko'pincha *quri-, ol-, ko'tar-* kabi bir necha fe'l leksema bilan-gina bog'lanib keladi: *Afting qursin, Basharang qursin, Aftingdan olsin* kabi. Xuddi shunday bog'lanishlarda *yuz-, bet-* leksemalari deyarli ishlatilmaydi. Aksincha, oddiy, betaraf tasvirlarda asosan *yuz-, bet-* leksemalari ishlatilib (*Yuzini yuvib kirib ketdi* kabi), *aft-, bashara-* leksemalari bunday hollarda deyarli ishlatilmaydi.

Baho semasi asli betaraf baholi leksemani o'z ishlatilish doirasidan boshqa bir doiraga ko'chirish tufayli ifodalansa, *kontekstual ifodalanish* deyiladi (lot. *contextus* - 'zich aloqa', 'bog'lanish'). Masalan, *bosh-* leksemasi kishi tanasining a'zosiga nisbatan, *kalla-* leksemasi esa hayvon tanasining a'zosiga nisbatan ishlatiladi. Bulardan har biri o'z ishlatilish doirasida baho semasi jihatidan betaraf: *Boshini quyi soldi. Kalla solib sho'rva pishirdi* kabi. Ammo *kalla-* leksemasi hayvondan odamga ko'chirib ishlatilsa, salbiy baholi bo'lib qoladi. Odatda *bosh-* leksemasi bilan aqllilik anglatilsa, *kalla-* leksemasi shuning aksi uchun ishlatiladi: *Kalla deb oshqovoqni ko'tarib yurgan ekansan-da, og'ayni!* kabi. Bunday o'rinda *kalla-* leksemasini *bosh-* leksemasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Umuman, bosh bilan bog'liq salbiy tushunchalar odatda *kalla-* leksemasi yordamida anglatiladi: *kallavaram-, kallaxum- (xumkalla-), kalla ur- (kalla qo'y-)*

kabi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi matnda *kalla*- leksemasining ishlatilgani xato: *Bu oltin kallaning bahosi yuksak, Dushmanlar bunga xun to'lashi kerak!* (Yashin).

Quyidagi matnda shoir leksemalarning baho semasidan juda ustalik bilan foydalangan (Birinchii misradagi *bosh*- leksemasi oxirgi misradagi *kalla*- leksemasini baho semasi jihatidan juda bo'rttirib turibdi): *Bu Ja'farning boshini silar Muallimi: "Barakalla", - deb, U Ja'farga tushar dakkilar: "Hay, tezroq yur, qora kalla!" – deb* (Shayxzoda).

Kontekstual ifodalanishning bir turi deb baho semasining *situativ ifodalanishini* ko'rsatish mumkin (fr. *situation* - 'holat', 'vaziyat'). Bunday ifodalanishda har safar konkret nutq situatsiyasi nazarda tutiladi. Masalan, *olim*- leksemasi shunday fazilati bor kishiga qarata ishlatilsa, baho semasi betaraf bo'ladi; agar bu leksema taqlidchiga, soxta intiluvchiga qarata mazax tariqasida ishlatilsa, bu leksema salbiy bahoga ega bo'lib qoladi: *Olimimiz o'z mulohazalarini bayon qilmoqchilar-ku* kabi.

Baho semasi bilan voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. O'zbek tilida morfologik usul bilan voqelikka ijobiy munosabat bildiriladi. Leksik ifodalanishda esa ijobiy munosabat ham, salbiy munosabat ham bildiriladi (*chehra*-, *bashara*- leksemalarida bo'lgani kabi). Kontekstual, situativ ifoda usulida odatda voqelikka salbiy munosabat bildiriladi. Ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilmagan hollarga nisbatan betaraf baho semasi haqida gapiriladi. Leksemalarning asosiy qismi baho semasi jihatidan betaraf bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абаев Н.В. Основы теории языкознания – реликтология. http://dodoy.ru/index.php?option=com_content&view=article&id=54:zapozdaloe-poslanie-slavnomu-turu-xejerdalu-iz-oseyii-ot-nikolaya-abaeva-chast-1&catid=39:etimologiya&Itemid=79
2. Лолаев Т. П. Сўзни қурилиш ҳақида (ДЗИРД). Нартс æвзаг – нартс тили (2 қисм)
3. https://vk.com/wall-162306154_11630

4. Араб филолог о турецком языке / Араб. текст изд. и снабдил пер. и введ. П.М. Мелиоранский. – Санкт-Петербург : тип. Имп. Акад. наук, 1900. – С. 33.
5. Дмитриев Н.К. Строй турецкого языка. – Ленинград: Ленингр. гос. ун-т, 1939. – С. 17.
6. Заур Дзитсоев. Из Переписки С С. Таболовым, 2007. <http://www.xn--e1agavasit5e.xn--p1ai/story/108-2011-07-18-08-26-56.html>